



XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 31-yanvar

VII-6-19-4-63-K/25

Mirishkor tumani

2025 yilda Mirishkor tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi to‘g‘risida

Tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, **yuqori va barqaror iqtisodiy o‘sishga** erishish, **aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati** uchun qulay shart-sharoit yaratish, **yashil tamoyil va yondashuvlarni** keng joriy etish, **iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni** amalga oshirish orqali aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoniga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar, **Mirishkor tumanini 2025-yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi** (keyingi o‘rinlarda – Dastur)ning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin.

a) tuman markazi **qiyofasini zamonaviy ko‘rinishga** keltirish, shu jumladan **oqova suv tarmog‘ini** qurishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, **obodonlashtirish, renovatsiya** hamda **yashil tamoyillar** asosida **zamonaviy uy-joylar** qurish;

b) xizmat ko'rsatish yo'nalishida **yo'l bo'yi infratuzilma** imkoniyatlaridan samarali foydalanish, **aholining dam olishi** uchun **yashil va ko'ngilochar eko bog'larni** tashkil etish;

v) qishloq xo'jaligida **ijaraga berilgan yerlarda namunali loyihalarni** amalga oshirish, tomorqalardan samarali foydalanish, sanoat plantatsiya usulida **yangi bog' tokzorlarni** tashkil etish, **dala chetlaridan** samarali foydalanish;

g) sanoatda **tikuvchilik sohasidagi** korxonalar quvvatini oshirish, **oziq-ovqat loyihalarini** samarali joylashtirish, **kichik sanoat zona** imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish.

3.Dasturga asosan:

sanoatni rivojlantirish kichik dasturi **1, 1a va 1b-ilovalarga;**

qishloq xo'jaligini rivojlantirish kichik dasturi **2, 2a va 2b-ilovalarga;**

qurilishni rivojlantirish kichik dasturi **3, 3a va 3b-ilovalarga;**

xizmatlarni rivojlantirish kichik dasturi **4, 4a va 4b-ilovalarga;**

hududiy eksport va investitsiyalar hajmini oshirish kichik dasturi **5 va 5a-ilovalarga;**

tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kichik dasturi **6, 6a, 6b va 2v-ilovalarga;**

aholi bandligini va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish kichik dasturi **7 va 7a-ilovalarga;**

yashil tamoyil va yondashuvlarni joriy etish kichik dasturi **8 va 2a-ilovalarga;**

ijtimoiy sohani rivojlantirish kichik dasturi **9 va 9a-ilovalarga;**

hududni rivojlantirishga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'larning manbalar kesimida prognoz parametrlari **10-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki:

tuman hokimining o'rinbosarlari, tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlari Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni **sifatli va o'z vaqtida** amalga oshirilishiga mas'ul bo'ladi;

Dastur ijrosini tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi tomonidan **har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga** qadar muvofiqlashtilib, natijasi yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib boriladi.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari, sektor rahbarlari Dasturda belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib borsin hamda har chorakda Dastur ijrosi bo'yicha **xalq deputatlari tuman Kengashi yig'ilishlarida hisoboti eshitib borilsin.**

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



G'ULOMOV
FAYZULLO
QURBONOVICH

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2025-yilda Mirishkor tumanida sanoatni rivojlantirish KICHIK DASTURI

T/p	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
1.	Mirishkor mahallasi hududida mikromarkaz tashkil qilish maqsadida 6 ta lot 0,22 gektar joy auksionga qo‘yilgan bo‘lib, mahalla ixtisoslashuvidan kelib chiqib mebelchilik va temirchilik sanoat markazini tashkil etish.	.Mahalla hududidagi auksionda turgan bo‘sh yer maydonlariga tadbirkorlarni jalb qilish. .Auksion g‘olibi tomonidan qurilish ishlarini amalga oshirish. .Qurib bitkazilgan sanoat markaziga zarur kommunikatsiya tarmoqlarini qurish. .Sanoat markaziga 6 ta loyihalarni joylashtirish.	1.48 mlrd so‘m shundan, Respublika byudjeti 0.2 mlrd so‘m Tashabbuskor mablag‘lari 0.6 mlrd so‘m Bank krediti 0.68 mlrd so‘m	2025-yil fevral 2025-yil mart 2025-yil aprel 2025-yil may	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Kadastr agentligi, Qurilish va uy-joy xo‘jaligi bo‘limi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi tijorat banklari

2.	“Mirobod”, “Pomuq”, “Ayzabod” va “Qurama” mahallalarida G‘ijdivon tajribasi asosida 4 ta loyihani amalga oshirish.	Amalga oshiriladigan loyihalar manzilli ro‘yxatini shakllantirish va tashabbuskorlarni aniqlash. Loyiha tashabbuskorlariga kredit mablag‘larini ajratishda ko‘maklashish. Zarur hollarda infratuzilma bilan ta‘minlash choralari ko‘rish. Loyihalarni amalga oshirish.	<u>6,8 mlrd.so‘m</u> (3,6 mlrd.so‘m tashabbuskor mablag‘lari hisobidan) Bank krediti hisobidan 3,2 mlrd.so‘m	2025-yil mart 2025-yil iyul 2025-yil oktabr	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Sariqov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi, Tegishli tashkilot va bo‘limlar
3.	Sanoat kirib bormagan 9 ta mahallada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda boshqa kichik ishlab chiqarishga qaratilgan 9 ta loyihani ishga tushirish.	Mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, amalga oshiriladigan loyihalar manzilli ro‘yxatini shakllantirish va tashabbuskorlarni aniqlash. Loyiha tashabbuskorlariga kredit mablag‘larini ajratishda ko‘maklashish.	<u>0,6 mlrd. so‘m</u> (0,4 mlrd. so‘m tashabbuskor mablag‘lari, 0,2 mlrd. so‘m tijorat banklari	2025-yil mart doimiy	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi

		Zarur hollarda infratuzilma bilan ta‘minlash choralari ko‘rish. Loyihalarni amalga oshirish.	kredit mablag‘lari)	tarmoq jadvaliga asosan	
--	--	---	---------------------	-------------------------	--

4.	9 ta bo'sh turgan davlat obyektlari joylashgan MFYlarning drayveridan kelib chiqib, (Sanoat, xizmat ko'rsatish) bo'yicha yangi quvvatlarni ishga tushirish.	Bo'sh turgan obyektlarni elektron auksion savdolariga joylashtirish. Salohiyatli maxalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida targ'ibot ishlarini olib borish. Tashabbuskorlarga zaruriy amaliy yordamlarni ko'rsatish orqali loyihalarni qisqa muddatlarda ishga tushirish choralari ko'rish. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmlarini statistika hisobotlarda aks ettirish.	<u>1,6 mlrd so'm</u> (tashabbuskor mablag'lari hisobidan)		Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Sariqov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Tegishli tashkilot va bo'limlar
5.	1 ta kichik sanoat zonasidagi mavjud 0,03 gektar bo'sh yer maydonlariga 9 ta yangi loyihalarni joylashtirish.	Bo'sh yer maydonlarining auksion savdolariga chiqarilishini ta'minlash. Mavjud bo'sh yer maydonlariga salohiyatli maxalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida targ'ibot ishlarini olib borish. Tadbirkorlarga ko'maklashish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirish va qo'shimcha sanoat hajmlarini yaratish uchun zaruriy choralarni ko'rish.	<u>1,0 mlrd so'm</u> (0,4 mlrd. so'm tashabbuskor mablag'lari, 0,6 mlrd. so'm tijorat banklari kredit mablag'lari)	2025-yil mart aprel 2025-yil	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Sariqov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Tegishli

					tashkilot va bo'limlar
6.	Sanoat zonalarida 2 ta sanoat loyihasini ishga tushirish.	Mavjud bo'sh yer maydonlariga salohiyatli maxalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish maqsadida targ'ibot ishlarini olib borish. Tadbirkorlarga ko'maklashish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirish va qo'shimcha sanoat hajmlarini yaratish uchun zaruriy choralarini ko'rish.	<u>0,6 mlrd so'm</u> (0,4 mlrd. so'm tashabbuskor mablag'lari, 0,2 mlrd. so'm tijorat banklari kredit mablag'lari)	2025-yil mart aprel 2025-yil	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Sariqov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Tegishli tashkilot va bo'limlar

7.	Mineral tuz sanoatini rivojlantirish va xomashyo zaxiralarini chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yish maqsadida "Pomuq" mahallasi hududidagi 53 ming tonna mineral tuz xom ashyo zaxirasiga ega yer qa'ri uchastkalarini	Mineral tuz mahsulotini qayta ishlashga mo'ljallangan loyiha uchun zarur bo'lgan yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish. Loyihani amalga oshirish tarmoq jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash. Loyihani amalga oshirishda qurilish ishlarini amalga oshirish hamda ishga	<u>10 mlrd. so'm</u> (8 mlrd. so'm tashabbuskor mablag'lari, 2 mlrd. so'm tijorat banklari)	2025 - yil fevral mart	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari (SH.To'rayev), Investitsiyalar,
----	--	---	---	--	---

	auksion savdolariga chiqarish.	tushirish. 3. Mineral tuz mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.	kredit mablag'lari)	grafik asosida 2025-yil	sanoat va savdo bo'limi
8.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda yirik investitsiya loyihalarini ishga tushirish.	.Umumiy qiymati 52,1 mln. dollar bo'lgan 5 ta loyihalarni shakllantirish. .Loyihalarning tarmoq jadvallarini ishlab chiqish va tasdiqlash. .Loyihalarni ishga tushirish.	<u>52,1 mln. doll</u> (52,1 mln. dollar tashabbuskor mablag'lari)	2025-yil mart aprel 2025-yil	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari (SH.To'rayev), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi
9.	Ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan korxonalarning manzilli ro'yxatini shakllantirib, kamaytirish sabablarini doimiy o'rganish.	.Ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirish sabablarini o'rganib ularni bartaraf etish yuzasidan zaruriy choralar ko'rish. .Mazkur korxonalar faoliyatini monitoring qilib borish. .Korxonalar faoliyati yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi qoshida tashkil etilgan sanoat shtabiga axborot berib borish.	Mablag' tala b etilmaydi	2025 yil fevral xar chorak yakunida	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari (SH.To'rayev), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilda Mirishkor tumanida sanoatni rivojlantirish bo'yicha MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

T/r	Indikatorlar nomi	O'lchov birligi	Qamrov darajasi	2025-yil (reja)					Mas'ullar
					1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	
					reja	reja	reja	reja	
1.	Sanoat mahsulotlari o'sish sur'ati	foiz	tuman	106,1	106,2	105,4	106	106,1	Iqtisodiyot va moliya bo'limi
2.	Sanoat kirib bormagan mahallalarda kichik ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish	ta	tuman, mahalla	9				9	Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
			Mirishkor	1				1	
			Obod	1				1	
			Yangi Mirishkor	1				1	
			Guliston	1				1	
			Mirobod	1				1	
			Barhayot	1				1	
			Ayzabot	1				1	
			Qurama	1				1	
			Pomuq	1				1	
3.	Mahallalarda mikrosanoat markazlarini tashkil etish (G'ijduvon tajribasi)	ta	tuman, mahalla	4				4	Iqtisodiyot va moliya bo'limi
			Mirobod	1				1	Iqtisodiyot va moliya bo'limi
			Pomuq	1				1	Iqtisodiyot va moliya bo'limi
			Ayzabot	1				1	Iqtisodiyot va moliya bo'limi
			Qurama	1				1	Iqtisodiyot va moliya bo'limi
4.	"Drayver" loyihalarini amalga oshirish (Zarbdor tajribasi)	ta	tuman	2		1	1		Iqtisodiyot va moliya bo'limi

5.	Sanoat zonalaridagi 0,03 gektar bo'sh yerlarda loyihalar joylashtirish	ta	tuman	9		3	3	3	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi
6.	Xonadonlarda kichik ishlab chiqarish sexlarini tashkil etish	ta	tuman, mahalla	4			1	3	Oila va xotin-qizlar bo'limi
	Gulobod MFY	ta	mahalla	1			1		Oila va xotin-qizlar bo'limi
	Yangi Mirishkor MFY	ta	mahalla	2				2	Oila va xotin-qizlar bo'limi
	Chamanzor MFY	ta	mahalla	1				1	Oila va xotin-qizlar bo'limi
7.	Foydali qazilma kon va maydonlarni auktsion savdolariga chiqarish	ta	tuman	2	2				Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi
8.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlari	ming tonna (yangi quvvat)	tuman	0,2			0,05	0,1	Qishloq xo'jaligi bo'limi
9.	Qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash darajasi (hisobot davri yakuni bo'yicha)	foiz	tuman	6,9	5,3	5,4	5,9	6,9	Qishloq xo'jaligi bo'limi

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2025-yilda Mirishkor tumanida sanoat yo‘nalishida amalga oshiriladigan loyihalarning MANZILLI RO‘YXATI

T/r	Loyiha tashabbuskori	Loyihaning nomi	Tarmoq yo‘nalishi	Yillik quvvati		Loyiha qiymati		shundan				Foydalanish-ga topshirish muddati	Xizmat ko‘rsatuvchi bank	Yaratiladigan ish o‘rni
				o‘lchov birligi	naturada qiymati	mln so‘m	ming doll.	o‘z mablag‘i	bank krediti	xorijiy kredit (ming doll.)	xorijiy investitsiya, (ming doll.)			
5	Jami hudud bo‘yicha	X	9 ta loyiha	X	X	180074	4500	119929	1645	4500	0	X	X	129
1	"JAMILOV JAMSHID BAHTIYOROVICH" XK	Milliy shirinliklar ishlab chiqarishni tashkil etish	Sanoat	tonna	35	500		250	250			31.12.2025	Turon bank	4
2	"LITAYI TEXTILE OVERSEAS" MChJ	Yog' ishlab chiqarish va paxta tozalash zavodi tashkil etish	Sanoat	tonna	12 000	154729	4500	96229		4500		31.12.2025	Asaka bank	50
3	"Mirishkor Rateks Tekstil" MChJ	Ip kalava ishlab chiqarishni tashkil etish	Sanoat	tonna	3500	22000		22000				31.12.2025	Mahalliy hokimlik	50
4	"XONDAMIR DILMUROD O‘G‘LONI" MChJ	Non va non maxsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish	Sanoat	tonna	14	300		200	100			31.12.2025	Xalq banki	4
5	"Azizbek aziz nonlari" MChJ	Non va non maxsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish	Sanoat	tonna	17	600		300	300			31.12.2025	Mikrokredit bank	5

6	"Hakim polvon avlodlari" MChJ	Non va non maxsulotlari ishlab chiqarish	Sanoat	tonna	12	500		200	300			31.12.2025	Turon bank	4
7	"Ne'mat mangu" XK	Non va non maxsulotlari ishlab chiqarish	Sanoat	tonna	15	800		300	500			31.12.2025	Asaka bank	5
8	Ro'ziev Bahtiyor Karimovich O/K	Non va non maxsulotlari ishlab chiqarish	Sanoat	tonna	12	300		200	100			31.12.2025	Turon bank	3
9	"AMIRBEK SAVDO IDEAL" MChJ	Non va non maxsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish	Sanoat	tonna	14	345		250	95			31.12.2025	Xalq banki	4

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2025 yilda Mirishkor tumanida qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish KICHIK DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
1.	Zarbdor tajribasi asosida 1 ta (Shodlik) MFY hududidagi 20 gektar yer maydonda suv ta’minotini yaxshilash orqali uzumchilik plantatsiyalarini tashkil qilish drayver loyihasini amalga oshirish.	Tanlangan maydonda suv ta’minotini yaxshilash bo‘yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish. Loyiha smeta hujjatlariga asosan tomchilatib sug‘orishga 1 ta quduq qazib chiqarish, 2 ta katta hovuz qazish maqsadlari uchun 5 mlrd.so‘m mablag‘ ajratish. Tayyorlangan yer maydonida umumchilik plantatsiyalarini tashkil qilish istagini bildirgan tashabbuskorlarga aukcion savdolari orqali belgilangan tartibda yer ajratish. Loyiha tashabbuskorlariga sohadagi malakali agronom jalb qilgan holda konsultativ xizmatlar ko‘rsatilishini tashkil qilish.	10,0 mlrd. so‘m (Respublika budjeti, tashabbuskorlar mablag‘i)	2025 yil 1 mart	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi

2.	Aholiga ijaraga berilgan 120 gektar qishloq xo'jaligi ekin yerlarida "bir kontur – bir mahsulot" tamoyili asosida mahsulot yetishtirish.	Namunaviy loyihalar tashkil etish uchun aholi yashash punktlariga yaqinda joylashgan, suv ta'minoti yaxshi bo'lgan, 10 gektardan kam bo'lmagan bittadan konturlarni tanlash. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, ekspotchki eksportga yuborish va	0,6 mlrd. (Mahalliy budget, tashabbuskorlar mablag'i)	2025 yil 1 fevral 2025 yil 15 fevral	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi, Qishloq xo'jaligi
----	--	--	---	---	--

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag', manbasi (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar
		ichki bozorlarga yetkazib berish faoliyati bilan shug'ullanadigan "yetakchi" tadbirkorlarni aniqlash va har bir konturga biriktirish. Bunda, tadbirkor va aholi o'rtasida uchrashuv va targ'ibot tashkil etish. Yer ijarachilarini dehqon xo'jaligi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish va qishloq xo'jaligi kooperativlariga birlashtirish. Urug'lik va ko'chatlarni sotib olish va ularni to'liq ekilishini tashkil qilish maqsadida "yetakchi" tadbirkorga yoki ijarachiga moliyaviy ko'mak berish. Zarur hollarda tanlangan konturlarda suv ta'minotini yaxshilash.		Doimiy Doimiy	bo'limi, Suv xo'jaligi bo'limi, tijorat banklari

3.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini 2 901, 1 mlrd so'm, 104,4 foizga o'sish sur'atini ta'minlash.	Tumanda 2147 gektarga "To'qsonbosti" usulida ekilgan sabzavotlar nes-nobud qilmasdan yig'ishtirib olinadi.	Tashabbuskorlar, tijorat banklari kreditlari	2025 yil 1 mart	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qishloq xo'jaligi bo'limi
		0. 2025 yil hosili uchun asosiy maydonlarga 2832 gektarga kartoshka, 176 gektar sabzavot, 556 gektar poliz, 401 gektarga moyli ekinlar, 265 gektarga dukkakli don, 1336 gektarga ozuqa ekinlarini to'liq ekilishi ta'minlanadi.		2025 yil 1 iyun	
		1. Tumanda g'alladan bo'shagan 8631 gektar shundan, 31 gektarga kartoshka, 2431 gektar sabzavot, 208 gektar poliz, 51 gektarga moyli ekinlar, 1892 gektarga dukkakli don, 2974 gektarga ozuqa ekinlari to'liq ekilishi ta'minlanadi.		2025 yil 1 avgust	

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag', manbasi (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar
-----	----------------------	---------------------------	--	---------	-----------

		2. Hududiy dasturlarga asosan 2025 yilda aholi tomorqalariga 3367 gektar erta bahorgi, 2832 gektar takroriy, 535 gektar avgust-sentabr piyoz va sarimsoqpiyoz hamda 735 gektar to'qsonbosti usulida ekinlarni ekish. 3. Aholi tomorqalarida ekilgan erta bahorgi ekin maydonlardan 37 379 ming tonna, takroriy maydonlardan 7683 ming tonna, avgust-sentabr piyoz va sarimsoqpiyoz maydonlaridan 9057 ming tonna hamda to'qsonbosti usulida ekin maydonlaridan 30681 ming tonna hosil olish ta'minlanadi. 4. Paxta va g'alladan qisqargan 2650 gektar maydonlardan 51,2 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilishi ta'minlanadi. 5. Chetdan 1255 boshdan ziyod naslli qoramol va 2450 bosh qo'y-echkilar olib kelinadi. 6. Suv tejamkor texnologiyalar joriy qilish maydonini 7000 gektarga shu jumladan tomchilatib sug'orish tizimini 2012 gektarga yetkaziladi. 7. Umumiy qiymati 30 mlrd so'mlik 17 tadan ortiq chorvachilik hamda 0,6 mlrd so'mlik 2 ta oziq-ovqat loyihalari amalga oshiriladi.		2025-yil 1-oktabr 2025-yil 1-noyabr 2025- yil avgust yil davomida yil davomida yil davomida yil davomida	
4.	20 gektar maydonda, shu jumladan eski bog'larni yangilash hisobiga yangi	1. Barpo etiladigan bog' va tokzor maydonlarini toifasi va foydalanish turini aniqlash.	5,0 mlrd so'm (Mahalliy byudjet,	2025-yil 1-fevral	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha

	intentsiv bog' va tokzorlar barpo qilish.				
--	---	--	--	--	--

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag', manbasi (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar
		8. Toifasi va foydalanish turi o'zgartirilishi talib etiladigan yer maydonlarini belgilangan tartibda toifasi va turini o'zgartirish. 9. Yer maydonlarini talabgorlar va tashabbuskorlarga belgilangan tartibda ajratish. 10. Ko'chat yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish. Bunda, ko'chat sotib olishda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlaridan foydalanish. 11. Yer tayyorlash va ko'chat ekish ishlarini amalga oshirish. Bunda, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi xizmatlaridan foydalanish.	tashabbuskorlar mablag'i)	Belgilangan muddatlarda 2025-yil 1-iyun 2025-yil 1-iyul 2025-yil 1-dekabr	o'rinbosari, Qishloq xo'jaligi bo'limi, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi filiali
5.	Aholi tomorqalari, mahallalar ichki ko'chalari, dala cheti va kanal- kollektorlar, xonadon va ko'p qavatli uylar atrofidagi 120 gektar yerlarda daromadli ekinlar ekishni yo'lga qo'yish.	2. Hudud ihtisosligidan kelib chiqib, hudud geografiyasi bo'yicha yetishtiriladigan mahsulotlar xaritasini ishlab chiqish. 3. Klaster va fermerlarga eksportyorlarni biriktirish. 4. Hudud faollari va fermerlarga yuqori daromadli mahsulotlar bo'yicha tavsiyaviyalar va yo'nalishlar ko'rastish.	0,1 mlrd. so'm (Mahalliy budjet, tashabbuskorlar mablag'i)	2025-yil 1-mart 2025-yil iyul Doimiy	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qishloq xo'jaligi bo'limi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi

6.	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat yo'nalishidagi 19 ta sanoat korxonalarida xalqaro standartlarni joriy qilish.	5. Oziq-ovqat mahsulotlari uchun talab etiladigan asosiy xalqaro standartlar ro'yxatini shakllantirish. 6. Standartlar joriy etiladigan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar bo'yicha	34,0 mlrd. so'm (tashabbuskorlar mablag'i)	2025-yil 1-fevral 2025-yil 1-sentabr	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, O'zstandart agentligi, Qishloq xo'jaligi bo'limi
----	---	---	--	---	--

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag', manbasi (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar
		qayta ishlash korxonalariga treninglar tashkil etish va qisqa metrajli videoroliklar tayyorlash. 3. Organik mahsulotlar bo'yicha yetakchi tashkilotlar standartlarini joriy etish choralarini ko'rish.		2025-yil 1-iyun	

7.	Qishloq xo'jaligida oborotdan chiqqan 500 gektar yerlarni qayta foydalanishga kiritish hamda 500 gektar yangi yerlarni o'zlashtirish.	Tuman hokimligi zaxirasida bo'lgan o'zlashtiriladigan va qayta foydalanishga kiritiladigan yer maydonlarining manzilli ro'yxati shakllantirish. Suv bilan ta'minlash imkoniyati mavjudligi bo'yicha Suv xo'jaligi vazirligining xulosasi; yer osti suvlari zaxirasining mavjudligi bo'yicha Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining xulosasi; yer maydonlarini o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar va taxminiy hisob-kitoblarga hamda moliyaviy manbaalariga aniqlik kiritish. Yer maydonlarini foydalanishga kiritish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali pudrat tashkilotlari (Pudratchi) aniqlash. Tuman komissiyasi tomonidan yer maydonlarini foydalanishga kiritilganligi bo'yicha tuzilgan dalolatnomalar asosida qabul qilish..	10,0 mlrd. so'm (mahalliy budjet, tashabbuskorlar mablag'i)	2025-yil 1-fevral 2025-yil 1-mart 2025-yil 1-aprel Doimiy	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, Qishloq xo'jaligi bo'limi
8.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi 3 ta quvvatlarni ishga tushirish.	1. Hududlarning qayta ishlash bo'yicha rejasiga muvofiq yetarli quvvatda qayta ishlash korxonlarini tashkil etish bo'yicha	1,2 mlrd. so'm (tashabbuskorlar	2025-yil 1-fevral	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag', manbasi (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar
-----	----------------------	---------------------------	--	---------	-----------

		loyihalar ro'yxatini shakllantirish va tarmoq jadvallarini tasdiqlash. Mavjud bog'larni xatlovdan o'tkazish va samarasiz bog'lar o'rnida intensiv bog'larni tashkil etish. Mahsulot yetishtiruvchi va qayta ishlovchilar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatishda ko'maklashish (bunda hududlarda B2B uchrashuvlar tashkil etish). Faoliyat yuritayotgan qayta ishlash korxonalarining qayta ishlash quvvatlarini oshirishda yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq choralar ko'rish.	mablag'i, tijorat banklari kreditlari)	2025-yil 1-iyul Har chorakda Doimiy	masalalari bo'yicha o'rinsosari, Qishloq xo'jaligi bo'limi, Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi
9.	Aholining asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabini ichki ishlab chiqarish hisobiga ta'minlash.	Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari importini tahlil qilish va ehtiyojni mahalliy mahsulotlar hisobidan qondirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Mahalliy mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda mavjud muammolarini bartaraf etishda amaliy yordam ko'rsatish. 0. Mahalliy quvvatlarda ehtiyojni qondirishda yetishmaydigan quvvatlarni oshirish maqsadida yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish (B2B uchrashuvlar tashkil etish va yetishtiruvchi va qayta ishlovchilar cooperation.uz portaliga keng jalb qilish).	10,0 mlrd. so'm. (tashabbuskorlar mablag'i, tijorat banklari kreditlari)	2025-yil 1-mart Doimiy Doimiy	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinsosari, Qishloq xo'jaligi bo'limi, Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi, Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi
10.	Suv tejovchi texnologiyalar tomchilatib sug'orish va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini joriy qilish	1. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishga ko'maklashuvchi servis xizmat	Mablag' talab qilinmaydi	2025-yil yanvar	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha

		ko'rsatish guruhlari faoliyatini yo'lga qo'yish.			
--	--	--	--	--	--

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag', manbasi (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar
		2. Kredit mablag'lari hisobidan suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish loyihalarini amalga oshirish uchun loyiha tashabbuskorlariga "suv.kredit.uz" elektron tizimi orqali ariza topshirishda ko'maklashish. 3. Suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinadigan maydonlarda qurilish ishlarini boshlash bo'yicha doimiy monitoring olib borish. 4. Joriy qilingan suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari uchun subsidiya olish maqsadida "Agro-subsidiya" AT orqali ariza topshirishga ko'maklashish.	Hisob-kitobga ko'ra tijorat banklari kreditlari Mablag' talab qilinmaydi Mablag' talab qilinmaydi	2025-yil yanvar-aprel Doimiy 2025-yil 1-dekabrga qadar	o'rinbosari, "Suv yetkazib berish xizmati" DM, tijorat banklari
11.	Ichki sug'orish tarmoqlarini (kanal va ariqlarni) betonlashtirish, irrigatsiya tizimlarida suv yo'qotilishi darajasini qisqartirish	5. Tuproq o'zanli va suv yo'qotilishi yuqori bo'lgan ichki sug'orish tarmoqlarini xatlovdan o'tkazish. 6. Xatlov natijalariga ko'ra, betonlashtiriladigan tarmoqlarning manzilli ro'yxatini shakllantirish. 7. Belgilangan reja ko'rsatkichlarga muvofiq betonlashtirish ishlarini tashkil etish.	Hisob-kitobga ko'ra	2025-yil davomida	Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM, Klaster va fermer xo'jaliklari

12.	Suv xo'jaligi obyektlari gidrotexnika inshootlari va gidropostlarni ta'mirlash hamda kanallarni tozalash	8. Tozalash va ta'mirlash talab etiladigan irrigatsiya tarmoqlarining manzilli ro'yxatini shakllantirish. 9. Belgilangan reja ko'rsatkichlarga muvofiq gidrotexnika inshootlari va gidropostlarni ta'mirlash hamda kanallarni tozalash ishlarini amalga oshirish.	Hisob-kitobga ko'ra	2025-yil fevral 2025-yil davomida	Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM, Klaster va fermer xo'jaliklari
-----	--	---	---------------------	---	---

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag', manbasi (mln. so'm)	Muddati	Mas'ullar
13.	* Tumanda 20 gektarda plantatsiya usulida rezavor mevalar bog' va uzumzorlar tashkil etish loyihasini amalga oshirish. (2024-yilning 8-9-aprel kunlari Jizzax viloyatiga tashrif davomida hamda o'tkazilgan yig'ilish bayoni)	0. "Shodlik" MFY hududidan tokzor barpo etish maqsadida 20 gektar yer maydonlarini tanlash; 1. Tanlangan 20 gektar yer maydonlarida tokzor tashkil qilish auksion savdolariga chiqarish; 2. Uzum ko'chatlarini ekish ishlarini tashkillashtirish; 3. Tayyor bo'lgan uzumzorlarni aholiga 10 yil muddatga bo'lib to'lash sharti bilan ikkilamchi ijaraga berish.	10,0 mlrd. so'm (Mahalliy budjet, tashabbuskorlar mablag'i)		

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2025-yilda Mirishkor tumanida qishloq ho'jaligini rivojlantirishning MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

T/r	Indikatorlar nomi	O'lchov birligi	Qamrov darajasi	2025 yil (reja)	shundan:				Mas'ullar
					I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	
1.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'ati	foiz	tuman	104,4	103,0	103,2	103,5	104,4	Qishloq xo'jaligi bo'limi
2.	"Drayver" loyihani amalga oshirish (Zarbdor tajribasi)	ta	tuman	1	1	0	0	0	Iqtisodiyot va moliya bo'limi
3.	Bug'doyda o'rtacha hosildorlik (suvli yerlarda)	sentner / gektar	tuman	69,4		17,35	52,05		Qishloq xo'jaligi bo'limi
4.	Yangi intentsiv bog' va tokzorlar barpo qilish	hektar	tuman	20				20	Qishloq xo'jaligi bo'limi
5.	Dala chetlarida ekin ekish	hektar	tuman	639	250	200	50	139	Qishloq xo'jaligi bo'limi
6.	Tut daraxtlarini ekish	ming tup	tuman	397	150	100	47	100	Ipakchilik qo'mitasi
7.	Yerlarni o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish	hektar	tuman	500	50	150	200	100	Qishloq xo'jaligi bo'limi
8.	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati korxonalari xalqaro standartlarni joriy qilish	korxona	tuman	14	4	3	3	4	Qishloq xo'jaligi bo'limi
		soni							
9.	Qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlar sotib olish	dona	tuman	84	19	25	20	20	Qishloq xo'jaligi bo'limi
10.	Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, shu jumladan:	ming gektar	tuman	22,3	9,0	2,0	3,1	8,2	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM
	tomchilatib sug'orish tizimlari	ming gektar	tuman	1,0	0,1	0,4	0,3	0,2	

	yomg'irlatib sug'orish tizimlari	ming gektar	tuman	0,6	0,2	0,1	0,1	0,2	
11.	Ichki sug'orish tarmoqlarini (kanal va ariqlarni) betonlashtirish	km	tuman	175	43,75	43,75	43,75	43,75	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM
12.	Irrigatsiya tizimida iqtisod qilinadigan suv hajmi	mln kub metr	tuman	85,9	21,475	21,475	21,475	21,475	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM
13.	Irrigatsiya tizimlarida suv yo'qotilishi darajasi (hisobot davri yakuni bo'yicha)	foiz	tuman	25	25	25	25	25	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM
14.	Suv xo'jaligi obyektlarini raqamlashtirish	ta	tuman	36	6	12	14	4	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM
15.	Kanallarni tozalash	km	tuman	28,8	14,2		2	12,6	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM
16.	Suv xo'jaligi obyektlarini ta'mirlash, shu jumladan:	ta	tuman	81	49	1	5	26	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM
16.1	gidrotexnika inshootlari	ta	tuman	32	20		2	10	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM

T/r	Indikatorlar nomi	O'lchov birligi	Qamrov darajasi	2025-yil (reja)	shundan:				Mas'ullar
					I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	
16.2	gidropostlar	ta	tuman	49	29	1	3	16	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM
17.	Suv ta'minoti darajasi past bo'lgan jami sug'oriladigan yer maydonlari	ming gektar	tuman	0,4	0,2	0,2			Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
6-ilova

**2025-yilda Mirishkor tumanida qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshiriladigan
loyihalarning MANZILLI RO'YXATI**

T/r	Loyiha tashabbuskori	Loyihanin g nomi	Tarmoq yo'nalishi	Loyiha qiymati		shundan				Foydalanish- ga topshirish muddati	Xizmat ko'rsatuvchi bank	Yarati- ladigan ish o'rni
				mln so'm	ming doll.	o'z mablag'i	bank krediti	xorijiy kredit (ming doll.)	xorijiy investitsiya, (ming doll.)			
	Jami hudud bo'yicha		9 ta loyiha	404 489	52 584	7 200	1 289	0	30 000	413 216	0	529
1	"Akobr Anvar" fermer xo'jaligi	Tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish	Zamonaviy sug'orish tizimini tashkil etish	631,0	82	100,0	531,0			10.05.2025	"Agro bank" ATB	2
2	"Gulmatov Tursunpo'lat" fermer xo'jaligi	Tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish	Zamonaviy sug'orish tizimini tashkil etish	658,0	86	100,0	558,0			10.05.2025	"Agro bank" ATB	2
3	"MIRISHKOR BARAKA ASIL CHORVA" MCHJ	Chorvachilik faoliyatini kengaytirish	Chorvachilikni rivojlantirish	650,0	85	450,0	200,0			15.06.2025	"Mikrokredit bank" ATB	3
4	"Amir Oqmachit Chorvadori" MCHJ	Tomchilatib sug'orish texnologiyasini tashkil qilish	Zamonaviy sug'orish tizimini tashkil etish	550,0	72	550,0				10.08.2025	Mahalli y hokimli k	2

5	"Rahmonov Nodir" fermer xo'jaligi	Chorvachilikni rivojlantirish	Chorvachilikni rivojlantirish	2 000,0	260	2 000,0				10.11.2025	Mahalliy hokimlik	5
6	"Kamalak" fermer xo'jaligi	Chorvachilikni rivojlantirish	Chorvachilikni rivojlantirish	1 000,0	130	1 000,0				25.11.2025	Mahalliy hokimlik	5
7	"Nomozov Abbos" fermer xo'jaligi	Chorvachilikni rivojlantirish	Chorvachilikni rivojlantirish	1 000,0	130	1 000,0				25.11.2025	Mahalliy hokimlik	5
8	"Sharif Bobo" fermer xo'jaligi	Chorvachilikni rivojlantirish	Chorvachilikni rivojlantirish	2 000,0	260	2 000,0				25.11.2025	Mahalliy hokimlik	5
9	"Sunfeel usbek" MCHJ xorijiy korxonasi	Pillachilik klasterini tashkil etish	Agroklastar va kooperatsiyalar tashkil etish	396 000,0	51480				30 000,0	20.12.2025	Mahalliy hokimlik	500

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
7-ilova

**2025-yilda Mirishkor tumanida qurilish sohasini rivojlantirishning
MAQSADLI KO'RSATKICHLAR**

T/r	Indikatorlar nomi	O'lchov birligi	Qamrov darajasi	2025 yil (reja)	shundan:				Mas'ullar
					I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	
1.	Qurilish ishlari o'sishi	foiz	tuman	107,8	107,6	107,8	107,2	107,8	<i>Qurilish va kommunal xo'jaligi bo'limi</i>
2.	O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari va ularda qurilgan obyektlarni xatlovdan o'tkazish	xatlov obyekti soni	tuman, mahalla	130	23	37	45	25	<i>Kadastr agentligi tuman bo'limi</i>
3.	Jamoatchilik fikri asosida ("ochiq budget" doirasida) tadbirlarni moliyalashtirish	mlrd so'm	tuman,	27,4		13,7	13,7		<i>Iqtisodiyot va moliya bo'limi</i>
4.	Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi qishloq infratuzilmasi, o'rta shaharlar va mahallalarda infratuzilmani yaxshilash loyihalari doirasida amalga oshiriladigan ish hajmi	mln doll.	tuman	0,8		0,8			<i>Tuman hokimligi,</i>
				0,8		0,8			<i>Qurilish va kommunal xo'jaligi bo'limi</i>
5.	Ko'p kvartirali uy-joylar qurilishini tashkil qilish, shu jumladan:	xonadon soni	tuman	60				60	<i>Qurilish va kommunal xo'jaligi bo'limi</i>
	<i>boshqa hududlarda</i>	<i>xonadon soni</i>	tuman	60				60	
6.	Mahallalarning asosiy kirish joylari qiyofasini yaxshilash	ta	tuman, mahalla	40	10	10	10	10	<i>Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi</i>

7.	Mahallalarda xonadonlar tashqi ko'rinishini yaxshilash	xonadon soni	tuman, mahalla	10795	2159	4318	1943	2375	Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi
8.	Mahallalar ko'chalarida ishqomlar barpo qilish	xonadon soni	tuman, mahalla	40	10	10	10	10	Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi
9.	Aholi punktlarida piyodalar va velosiped yo'llarini tashkil etish	km	tuman,	6	1,5	1,5	1,5	1,5	Avtomobil yo'llari bo'limi
			mahalla	6	1,5	1,5	1,5	1,5	
10.	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari holatini yaxshilash loyihalarini amalga oshirish	km	tuman	83		38	45		Avtomobil yo'llari bo'limi
11.	Ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash	ta	tuman	3		1	1	1	Qurilish va kommunal xo'jaligi bo'limi
12.	Aholi xonadonlarini ichimlik suvi tarmog'iga ulash	xonadon soni	tuman	500	125	125	125	125	"Suv ta'minoti" MCHJ
13.	Markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi	foiz	tuman	10,5	2,6	2,6	2,7	2,6	"Suv ta'minoti" MCHJ
	shaharchalar bosh rejaları	ta	tuman	1			1		
	qishloqlar hududini shaharsozlik jihatdan rivojlantirish			4	1	1	1	1	

T/r	Indikatorlar nomi	O'lchov birligi	Qamrov darajasi	2025 yil (reja)	shundan:				Mas'ullar
					I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	
15.	sxemalari	ta	tuman						Qurilish va kommunal xo'jaligi bo'limi
T/r	Indikatorlar nomi	O'lchov birligi	Qamrov darajasi	2025 yil (reja)	shundan:				Mas'ullar
					I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	
16.	Elektr energetika obyektlarini ta'mirlash,		tuman	252,5	71	83	63	35,5	Tuman elektr tarmoqlari korxonasi
	shu jumladan:								
	yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari (220-500 kV)	km	tuman						
	past kuchlanishli elektr tarmoqlari (0,4-110 kV)	km	tuman	234,5	68	77	59	30,5	
	transformator punktlari	ta	tuman	18	3	6	4	5	

17.	Iste'molchilarda elektr energiyasi hisoblagichlarini o'rnatish	ta	tuman	412	45	105	185	77	<i>Tuman elektr tarmoqlari korxonasi</i>
18.	Avtobus bekatlarini qurish va ta'mirlash	ta	tuman, mahalla	4	1	1	1	1	<i>Tuman hokimligi, Avtomobil yo'llari bo'limi</i>
19.	Ko'priklarni tiklash	ta	tuman	2				2	<i>Avtomobil yo'llari bo'limi</i>
20.	Avtomobil yo'llari hamda ko'chalarda yo'l belgilari va ko'rsatkichlarini o'rnatish	ta	tuman	220	50	50	55	55	<i>Yo'l harakati xavfsizligi xizmati, Avtomobil yo'llari bo'limi</i>

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-6-19-4-63-K/25 -son qaroriga
8-ilova

**Yo'l-transport infratuzilmasi va muhandislik-kommunikatsiyalarini qurish, rekonstruksiya qilish va
modernizatsiyalash
CHORA-TADBIRLARI**

№	Muassasa nomi va amalga oshiriladigan tadbirlar	O'lchov birligi	Quvvati	Amalga oshirish muddati	Talab etiladigan mablag'** (mln.so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
	Tuman bo'yicha jami	x	x	x	9 639,5	x	x
	<i>shu jumladan:</i>						
I.	Irrigatsiya tarmoqlari	kanal, km		x	9 329,0		x
		tarmoq, km	6,6				
		lotok, km	2,9				
		nasos, dona	3,0				
		sug'orish tik quduq, dona	15,0				
II.	Qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlar	nasos, dona					x
III.	Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari	tarmoq (km)	0,0	x	0,0	x	x
		obyekt (dona)	0,0				
IV.	Yo'l infratuzilmasini yaxshilash	km	1,0	x	0,0	x	x
		obyekt	0				
V.	O'rmon xo'jaligi agentligi	obyekt	0,0	0	0,0	0	0
VI.	Suv ta'minoti va kanalizatsiya	tarmoq, km	0	x	0	Respublika byudjeti mablag'lari	Suv yetkazib berish xizmati,

VII.	Issiqlik ta'minoti	nasos, dona	1	x	0	0	0
		sug'orish tik quduq, dona	3				
VIII.	Sug'orish qudug'i	x	x	x	310,5	x	x
	shundan:			x		x	x
I.	Irrigatsiya tarmoqlari	kanal, km	0,0	x	9 329	x	x
		tarmoq, km	6,6				
		lotok, km	2,9				
		nasos, dona	3,0				
		sug'orish tik quduq, dona	15,0				
1	Mirishkor tumani Yangi Jeynov MFY hududidagi aholi tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash uchun sug'orish qudug'i qurish va sug'orish tarmog'ini rekonstruksiya qilish	tarmoq, km		2025-yil davomida	230,0	Respublika byudjeti mablag'lari	Suv yetkazib berish xizmati, Iqtisodiyot va moliya bo'limi
		lotok, km					
		nasos, dona					
		sug'orish tik quduq, dona	1				

№	Muassasa nomi va amalga oshiriladigan tadbirlar	O'lchov birligi	Quvvati	Amalga oshirish muddati	Talab etiladigan mablag** (mln.so'm)	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
2	Mirishkor tumani Shodlik MFY hududidagi aholi tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash uchun sug'orish qudug'i qurish va sug'orish tarmog'ini rekonstruksiya qilish	tarmoq, km		2025-yil davomida	1 453,0	Respublika byudjeti mablag'lari	Suv yetkazib berish xizmati, Iqtisodiyot va moliya bo'limi
		lotok, km	1				
		nasos, dona					
		sug'orish tik quduq, dona	4				
3	Mirishkor tumani Bahoriston MFY hududidagi aholi tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash uchun sug'orish qudug'i qurish va sug'orish tarmog'ini rekonstruksiya qilish	tarmoq, km	0	2025-yil davomida	1 190,0	Respublika byudjeti mablag'lari	Suv yetkazib berish xizmati, Iqtisodiyot va moliya bo'limi
		lotok, km	0,6				
		nasos, dona	1				
		sug'orish tik quduq, dona	3				
4	Mirishkor tumani Navbahor MFY hududidagi aholi tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash uchun sug'orish qudug'i qurish va sug'orish tarmog'ini rekonstruksiya qilish	tarmoq, km	2,8	2025-yil davomida	2 636,0	Respublika byudjeti mablag'lari	Suv yetkazib berish xizmati, Iqtisodiyot va moliya bo'limi
		lotok, km	0,5				
		nasos, dona	1				
		sug'orish tik quduq, dona	3				
		tarmoq, km	1,1				

5	Mirishkor tumani Mirobod MFY hududidagi aholi tomorqa yerlarini sugʻorishni yaxshilash uchun sugʻorish qudugʻi qurish va sugʻorish tarmogʻini rekonstruksiya qilish	lotok, km		2025-yil davomida	910,0	Respublika byudjeti mablagʻlari	Suv yetkazib berish xizmati, Iqtisodiyot va moliya boʻlimi
		nasos, dona					
		sugʻorish tik quduq, dona	1				
6	Mirishkor tumani Guliston MFY hududidagi aholi tomorqa yerlarini sugʻorishni yaxshilash uchun sugʻorish qudugʻi qurish va sugʻorish tarmogʻini rekonstruksiya qilish	tarmoq, km	1,5	2025-yil davomida	1 360,0	Respublika byudjeti mablagʻlari	Suv yetkazib berish xizmati, Iqtisodiyot va moliya boʻlimi
		lotok, km					
		nasos, dona					
		sugʻorish tik quduq, dona	2				
7	Mirishkor tumani Obodon MFY hududidagi aholi tomorqa yerlarini sugʻorishni yaxshilash uchun sugʻorish qudugʻi qurish va sugʻorish tarmogʻini rekonstruksiya qilish	tarmoq, km	1,2	2025-yil davomida	1 550,0	Respublika byudjeti mablagʻlari	Suv yetkazib berish xizmati, Iqtisodiyot va moliya boʻlimi
		lotok, km	0,8				
		nasos, dona	1				
		sugʻorish tik quduq, dona	1				
II.	Yoʻl infratuzilmasini yaxshilash	km	97,0	0	0,0	0	0
		obyekt	5,0				
III.	Sugʻorish qudugʻi	dona	1	2025-yil	310,5	X	X
		km	2				
IV.	Mirishkor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi sugʻorish qudugʻini qurish	dona	1	2025-yil	310,5	Mahalliy byudjet parametiri	Mirishkor tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi

